



## Ozodlikdan mahrum qilingan shaxslarning ijtimoiy foydali mehnat bilan band bo'lishining o'ziga xos tomonlari

Muxtarov Nodirbek  
Sherali o'g'li

*O'zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi 1 mintaqaviy hudud 14 son Jazoni ijro etish koloniyasi Tezkor-qidiruv bo'limi tezkor vakili kapitan*

### ***Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik***

Xalqimiz, ota-bobolarimiz bejizga bu maqolni ishlatishmagan. Hunar hunardan rizqing unar. Qachonki biz mehnat bilan band bo'lar ekanmiz, tanamiz, ongimiz ham harakatda bo'ladi. Sog'ligimiz me'yorida bo'ladi. Fikrlashimiz tiniqlashadi. Hayotga bo'lgan ishonchimiz ortadi. Atrofdagi insonlarda yaxshi taassurot uyg'otamiz. Mehnatimiz natijasida boshqa insonlarga, muhtojlarga yordam ulashamiz. Mehnatimiz orqasidan nafaqat o'zimiz balki yaqinlarimiz ham rohat ko'radi. Mehnat qilib daromad topishimiz, o'zimizga kerakli kiyim-kechaklar olishimiz, kundalik ehtiyojimizda kerak bo'ladigan oziq-ovqatlarni topishimiz mumkin. Yaqinlarimizga ota-onamizga, aka-uka, opa-singlimizga ham yaxshilik qilish uchun ularga sovg'alar ulashish uchun ham mehnat qilib daromad topamiz. Farzandlarimizni o'stirishimiz uchun ularni behavotir ta'lim olishini ta'minlash uchun ham mehnat qilamiz.

Mehnat bilan band bo'lish insonda mavjud axloqiy qusurlarni ham kamayishiga olib keladi. Mehnat bizdagi boqimandalik, loqaydlik, dangasalik, nafs kabi axloqiy dushmanlarimizni ham zo'rayib ketishini oldini oladi.

Shu sababli ham yurtimizda olib borilayotgan islohotlar, yurtboshimiz tomonidan ilgari surulayotgan taklif, tamoyillarning asosida ham mehnat bilan band bo'lish bo'sh vaqt topildimi albatta biron bir ijtimoiy foydali ish bilan band bo'lishimiz kerakligi ilgari surulmoqda.

Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning bir yo'nalishi sifatida axloqiy qusurlariga yengilib, jamiyatning qora ko'chalariga kirib, jinoyat sodir etib ozodlikdan mahrum etilgan shaxslarning jazo muddatini o'tash davomida ijtimoiy-foydali mehnat bilan band bo'lishi qanchalik dolzarbligi to'g'risidayam to'xtalamiz.

Aslida insonni jinoyat sodir etishiga asosan mehnat bilan band bo'lmaganligi, moliyaviy daromad manbayiga ega bo'lmaganligi sabab bo'ladi. Dangasalik, tanballik, boqimandalik, o'z shaxsiga ishonchning yoqligi insonni o'girlik, bosqinchlik, bezorilik, tovlamachilik kabi jinoytlarni sodir etishga boshlaydi. Eng yomon tomoni esa ushbu jinoyatdan jabr chekayotgan insonlar ham halol yo'l bilan mehnat qilib oilasini boqish uchun harakat qilib yurgan insonlar bo'lishadi va jinoyatdan jabr chekkanlaridan keyin ular o'z sog'ligidan ayrilib qolib, o'zi va oilasi ham daromad manbayisiz qolishi mumkin.

Bularni inobatga olgan holda Qonunchiligimiz yo'ldan adashgan insonlarga o'ziga berilgan jazo muddati davomida o'zini xatolari va kamchiliklarini tuzartib olishi uchun, avval ega bo'lmagan hunarlarini, kasblarini jazo muddati davomida o'rganib, kelajakda ozodlikka chiqqanidan so'ng o'zining o'rgangan hunarlari orqali mehnat qilib halol yo'llar bilan daromad topib jamiyatda yana o'z o'rniga ega bo'lishini ko'zlaydi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning shaxsan o'zlari ham bu sohaga alohida to'xtalib, bu yo'nalishni isloh qilish uchun bir qator farmon va qarorlarni imzolaganlar. Birgini misol qilib 2019-yil qabul qilingan PQ 4138 son qarorda ustoz shogird an'analari qayta tashkil etib, tizimini yo'lga qo'yish belgilab o'tildi. Buning natijasi o'laroq jazoni ijro etish muassasalarida mahkumlar o'rtasida yangi kelgan mahkumlarga oldindan jazo muddatini o'tab, bir hunar yoki kasb egasiga aylangan mahkumlar tomonidan hunar va kasbga oid ta'limlar berilib ularda ustoz-shogird an'analari qayta yo'lga qo'yildi. Ushbu ustoz-shogird kasb-hunar maktabini tamomlagan mahkumlarga tegishli sertifikatlar berilmoqda.

Misol qilib aytadigan bo'lsak, 2023 yilning avgust oyida Oltinchi mintaqaviy hudud 27-son manzil koloniyasida "Hunarmand" uyushmasi Qo'ng'iroq tuman bo'limi bilan hamkorlikda "Usta-shogird maktabi"ni tamomlagan 40 nafar mahkumga tegishli sertifikatlar topshirildi.<sup>1</sup>

2023-yil oktyabr oyida Beshinchi mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi 5-son jazoni ijro etish koloniyasida jazo muddatini o'tayotgan 90 nafar mahkumlarga koloniyada O'zbekiston Respublikasi Hunarmand uyushmasi Navoiy viloyat bo'limi bilan hamkorlikda "Ustoz-shogird" an'analari kasb-hunar maktabini tamomlagani munosabati bilan tegishli sertifikatlar topshirildi.<sup>2</sup>

Ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar ozodlikka chiqqanidan so'ng ularni ijtimoiy reabilitatsiya va jamiyatga o'z o'rnida adaptatsiya qilishini ta'minlash maqsadida 2023- yil 5-sentyabr kuni hukumatning "Aholining ijtimoiy ehtiyojmand ayrim toifalarini qo'lab quvvatlash va ularning bandligiga ko'maklashish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi 450-son VMQ ga ko'ra 2023-yilning 1-oktyabrdan jazoni ijro etish muassalaridan ozod qilingan shaxslarni ishga qabul qilgan ish beruvchilarga har bir shaxs uchun 3 oydan ortiq muddatda mehnat faoliyatini davom ettirgandan so'ng BHM ning 3 baravari miqdorida bir martalik subsidiya ajratilishi yo'lga qo'yildi<sup>3</sup>.

2025-yil 1-yanvargacha tadbirkorlarga jazoni ijro etish muassalaridan ozod qilingan shaxslarning nazoratda bo'lgan davrida mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlari bo'yicha to'langan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini qaytarish tizimi ham yo'lga qo'yildi.<sup>4</sup>

Bu bilan nafaqat ozodlikka chiqayotgan shaxsning ish bilan ta'minlanishi balki ushbu shaxsni ishga qabul qilayotgan tadbirkorlarga ham imtiyoz berish hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O'zbekiston Respublikasi qonunlari;

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon, qarorlari;

<sup>1</sup> t.me/JIEDUZ

<sup>2</sup> t.me/JIEDUZ

<sup>3</sup> https://ochun.uz

<sup>4</sup> https://ochun.uz

- 3.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi qarorlari;
- 4.O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroiya kodeksi;
- 5.O'zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamentining sohaviy ko'rsatmalari.
- 6.<https://ochun.uz> sayti
- 7.<https://lex.uz> sayti
- 8.<https://cyberlyneyka> sayti